

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

AMUDARYO TUMANIDA KELINSALOM QO‘SHIQLARI XUSUSIYATLARI

Javlonbek Yo‘ldoshev,

*Nukus DPI O‘zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi magistranti*

Ilmiy rahbar: H.Allambergenov,

*Nukus DPI O‘zbek adabiyoti kafedrası
dotsenti*

Annotatsiya: *Maqolada Amudaro tumanida „Kelin salom“ qo‘shig‘ining qadimiy marosim sifatida shakllanib kelganligi, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, tasviriy vositalari, kuchli yumoristik shaklda qo‘llanishi kabi o‘ziga xosliklari tahlillangan.*

Kalit so‘zlar: *Kelin salom, qadimiy marosim, salomchi, janriy belgilari, mavzu, g‘oya.*

Аннотация: *В статье анализируется становление песни «Келин Салам» как древнего ритуала в районе Амударо, ее идейно-художественные особенности, изобразительные средства, а также ее использование в ярко выраженной юмористической форме.*

Ключевые слова: *Приветствие невесты, древний обряд, приветствие, жанровая символика, тема, идея.*

Annotation: *The article analyzes the formation of the "Kelin Salam" song as an ancient ritual in Amudaro district, its ideological and artistic features, pictorial means, and its use in a strong humorous form.*

Key words: *Greeting the bride, ancient ritual, salutatorian, genre symbols, theme, idea.*

Kelin salom qo‘shiq-lari turkiy xalqlarda o‘ziga xos o‘ringa ega marosim jarayonida ijro etiluvchi folklor materiali sifatida avloddan avlodga o‘tib, boyib kelayotgan ma‘naviy meros, qadriyat hisoblanadi. Shu bois kelin salom qo‘shiq-lari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini, ahamiyatini saqlab kelmoqda. Uning janr sifatida shakllanishi, tuzilishi, o‘ziga xos qofiya tizimi va ijro uslubi alohida ahamiyatga ega.

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida o‘z janriy belgilari juda yaxshi saqlanib qolgan „kelin salom“ marosimi to‘yning kulminatsion nuqtasi, ya‘ni eng qiziqarli jarayoni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining turli hududlarida ushbu marosim kunning har xil vaqtlarida va turfa shakllarda, aksariyat hududlarda doira jo‘rligida, ayol kishi tomonidan, biroq biz so‘z yuritmoqchi bo‘layotgan hududda ko‘pincha davraboshchi hisoblangan erkak kishi, ya‘ni mahalliy tilda aytganda, „salomchi“ tomonidan o‘tkaziladi. Shoir Matnazar Abdulhakim „salomchilar faqat kelin salomni aytuvchilar emas, balki xalqni yuksak ma‘naviyatga undovchi tashviqotchilar“, – deb ham takidlagan edi¹.

¹ Ахмад Нафас. Саломчи – менинг унвоним. – Тошкент: Muharrir, 2013. – В. 11.

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Qoraqalpog‘iston Respublikasining To‘rtko‘l, Beruniy, Ellikqal‘a, Amudaryo, Taxiatosh, Xo‘jayli tumanlarida va Xorazim viloyatining Gurlan tumanidagi o‘zbek to‘ylarida juda yaxshi saqlanib qolgan „kelin salom“ an‘anasi, asosan, to‘y kuni bo‘lib o‘tadi. Kelin odatda tush mahali ota uyidan chiqib, sayldan so‘ng kuyov uyiga ilk qadam bosib kelgan vaqtida shu hududda yashovchi barcha el-xalqqa, kuyovning yaqin qon-qarindoshlariga, yor-birodarlariga salom berish odatini amalga oshiradi. Bu urf-odat hududlarda har xil shaklda o‘tkazilsa ham, uning tub negizida asosiy maqsad kuyov tarafni tanishtirishdir.

Qoraqalpog‘istonning janubiy hududlarida kelinga kuyov tomonni tanishtirish quyidagi shaklda amalga oshiriladi: qaynata-qaynanasidan to aka-uka, amma-xola, doyi (to‘g‘a)-jiyan, ularning oilasi, qudalar, do‘stlar, kuyov jo‘ralar, qo‘ni-qo‘shnilarga, uzoq-yaqindan kelgan barcha mehmonlarga, to‘yda xizmat qilgan katta-kichikka nomma-nom salom aytiladi. Kelin esa salomini kanda qilmasdan ikkita yanga va ikkita dugonasi hamrohligida barchaga ta‘zim bilan egilib, hurmatini bildiradi:

*Bismillahir Rohmanir Rahim,
Salomdur tabarruk odati qadim,
Kelin tavoze-la aylaydi ta‘zim,
Tinglang, koring, kelin salom beradi.*

*Salom tinglang boshqa gapni netgaysiz,
Ta‘zimidan baxtga to‘lib ketgaysiz,
Sizlar ham to‘y bermoq niyat etgaysiz,
Tinglang, ko‘ring, kelin salom beradi.²*

Ba‘zi hollarda salom aytilmay qolganlarning xafa bo‘lib yurish holatlari ham uchrab turadi. Bunday paytlarda salomchi odam keyinchalik ta‘na-yu-dashnomga qolmasligi uchun oldindan ularga ham salom aytib qo‘yadi:

*– Bizlar ne? – deb, tumshuq tovlab turmasin,
– Aytmadi? – deb, o‘pkalanib (xafalashib) yurmasin,
To‘ydan keyin meni tutib urmasin,
Esdan chiqib qolganlarga, hazillashganlarimizga
Egilib, egilib bering bir salom!³*

Kelinsalom qo‘shiq-lari o‘zining tuzilishi, mazmuniy go‘zalligi, obrazliligi, badiiy-tasvir vositalari, xalqona ruhi, ba‘zan yumoristik xarakterga egaligi, ijro uslubi bilan boshqa folklor janrlardan ajralib turadi. Quyida odamlarning xulqi, fe‘l-atvori, xarakter xususiyati, ko‘rinishlari kuchli hajv qilinib yozilgan va kichik folklor ekspeditsiyalari jarayonida to‘plangan bu turdagi ayrim namunalarni keltiramiz:

² Абдуллаев Т. 1001 салом ва янги саломлар. – Урганч: Ijodkor, 2021. – В. 8-9.

³ Абдуллаев Т. 1001 салом ва янги саломлар. – Урганч: Ijodkor, 2021. – В. 138.

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Chelga bitgan makkaday,
Chaqaqlab turgan hakkaday,
... ga bering bir salom!

Solmada (ariqda) yotgan sazanday,
Quyruqlari qozonday
... ga bering bir salom!

Chelda pitgan pechakday
Sutdan qolgan o‘jakday
... ga bering bir salom!

Xivadan kelgan bangiday
Devorga suyangan zangiday
... ga bering bir salom!

Odatda hajviy mazmundagi salomlar ikki misrali bo‘lib uchinchi misrasi odatdagiday ta’riflanayotgan shaxsga salom tarzida ijro etiladi. Ushbu salomlarda chiroyli qofiyalar, mubolag‘a hamda o‘xshatishga asoslangan tashbih she’riy san’ati namunalaridan mohirona foydalaniladi. Masalan, uzun bo‘yli odamning chekkada egilibroq holatda turishini ta’riflagan yuqoridagi parchada tashbihning „bangi“, „zangi“ kabi o‘xshatilmish va „day“ vosita unsurlari ishtirok etgan.

Umuman, nikoh to‘ylari barcha xalqlarda avlod davomligini belgilaydigan, eng quvonchli, unutilmas oilaviy marosim namunalaridan biridir. Uning ajralmas qismi hisoblangan, tom ma’noda xalq ijodkorligini, badiiy tafakkur salohiyatini, namoyon etuvchi kelin salom qo‘shiqdari so‘zga chechanlikni, zukkolikni, xalq orasidagi eng qiziqarli urf-odatlarini, qadriyatlarini o‘zida jamlagan. Chunki kelin salom marosimi zavqli bir jarayondir. Ijodkor badiiy materialni xalqdan olib uni boyitadi, ishlov beradi, yangi-yangi liboslar kiydiradi va qayta tinglovchiga taqdim etadi. Zotan xalqona so‘z va tushunchalarga, badiiy tasviriy vositalarga to‘yingan asar ta’siri kuchli va boqiylikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmad Nafas. Salomchi – mening unvonim. – Toshkent: Muharrir, 2013.
2. Абдуллаев Т. 1001 салом ва янги саломлар. – Урганч: Ijodkor, 2021.
3. Ҳожиахмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ, 2001.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008.
5. <https://arxiv.uz/>.
6. <https://kitobxon.com/>
7. <https://abiturtest.uz/>